



## Farg`ona viloyatining sanoat ishlab chiqarishi (2020- yil yanvar-iyun)



Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2020- yilning yanvar-iyun oylarida respublika korxonalaridan 9 458,2 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2019- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishning fizik hajm indeksi\* 97,1 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarish tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi (92,1 %) ni tashkil etdi.



## Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish


Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi pasayishining asosiy omili bo'lib, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatida - 15 % ga va suv bilan ta'minlash, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning – 5,5 % ga pasayish kuzatildi.

Shuningdek, hamda kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishda - 10,0 % ga elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning - 12 % ga o'sishi kuzatildi.

\*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.



### Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatining jami sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 42,2 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,4 % ni tashkil etdi.



### Ishlab chiqaradigan sanoat


2020- yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot-lar hajmi 8 710,3 mlrd. so'mni yoki jami sanoat mahsulot-larining 92,1 % ini tashkil etdi.





**Ishlab chiqarishning texnologik tarkibi  
bo'yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi, % da**

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,3 % ni (2019- yil yanvar-iyun oylarida - 0,1 %), o'rta-yuqori texnologiyali - 14,8 % (13,5 %), o'rta-quyi texnologiyali – 28,9 % (29,3 %) va quyi texnologiyalisi – 48,1 % (51,2 %) ni tashkil etdi.



Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va asbob-uskunalar ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, avtotransport vositalari, yarim pritseplar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi - 4,5 % (2019- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 98,7 %), metallurgiya sanoatining ulushi - 0,5 % (2019- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 71,8 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 27,8 % (2019- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 102,9 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 6,3 % (2019- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 115,5 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi - 12,8 % (2019-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 103,0 %) ni tashkil etdi.



### Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati



2020- yilning yanvar-iyun oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 178,8 ming tonna dizel yoqilg'isi (2019- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 21,9 % ga o'sgan), 2,7 ming natriy nitrat (13,5 %), 93,2 ming tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (20,1 %), 1058,0 ming. litr tabiiy oq va qizil disert uzum vinolari (25,4 %) ishlab chiqarilib, yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi.



### Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari                    | 2019- yil yanvar-iyun | 2020- yil yanvar-iyun | Farqi +/- |
|--|-----------------------|-----------------------|-----------|
| Uzum vinosi (ming litr)                | 844                   | 1058                  | 1033      |
| Neft bitumi (ming tonna)               | 29,5                  | 6,0                   | -23,5     |
| Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming t. | 77,6                  | 93,2                  | 15,6      |
| O'simlik yog'i (tozalangan), ming t.   | 10,9                  | 17,9                  | 7         |
| Aroq 100% (ming litr)                  | 675                   | 627                   | 48        |


**Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash  
va havoni konditsiyalash**


Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 653,7 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining (6,9 % ini) tashkil etdi.

2020- yilning yanvar-iyun oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalash o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 112,0 % ga oshganligi kuzatildi.


**Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni  
konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari  
tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**

| Sanoat mahsulotlari                            | 2019- yil<br>yanvar-iyun | 2020- yil<br>yanvar-iyun | Farqi<br>+/- |
|--|--------------------------|--------------------------|--------------|
| <b>Elektroenergiya,</b><br><i>mln.kVt/s</i>    | 131,8                    | 137,5                    | 5,7          |
| <b>Issqlik energiyasi,</b><br><i>ming gkal</i> | 1306,9                   | 1046,9                   | -260,0       |


**Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish**

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalaridan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 52,0 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,6 % ini) tashkil etdi.


**Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish sohasida yirik sanoat korxonalaridan ishlab chiqarilgan mahsulotlarni ishlab chiqarish**


| Sanoat mahsulotlari  | 2019- yil yanvar-iyun | 2020- yil yanvar-iyun | Farqi +/- |
|--|-----------------------|-----------------------|-----------|
| Oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mln.so'm | 35 735,0              | 28 479,3              | 7255,7    |
| Zararsiz chiqindilarni yig'ish bo'yicha xizmatlar, mln.so'm                                    | 4058,2                | 8520,6                | 4 462,4   |
| To'qimachilik chiqindilari, t  | 6 575                 | 6 365                 | -210,0    |

O'tgan yilning mos davriga nisbatan axlat o'ralarni, tindirgichlarni va septiklarni bo'shatish, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 29,0 % ga oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar – 1,1 % ga oshganlik kuzatildi, shuningdek, to'qimachilik chiqindilari - 3,2 % ga pasayish kuzatildi.



## Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 3 260,8 mlrd.so'mni tashkil etdi va 2019- yilning mos davriga nisbatan 3,8 % ga tushgan holda, uning jami sanoatdagi ulushi 34,5 % ni tashkil etdi.



2019- yilning mos davriga nisbatan solishtirganda 2020- yil yanvar-iyun oylarida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida nooziq-ovqat mahsulotlarning ulushi 59,2 % dan 59,7 % gacha ko'payganligi qayd etildi.

Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyatdagi jami hajmidagi eng yuqori ulushi Qo`qon shahriga to'g'ri kelib, 19,3 % ni, shuningdek, Farg`ona shahri 17,3 % ni, Marg`ilon shahri 7,4 % ni, Bag`dod tumani 6,6 % ni hamda Quva tumani 5,5 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida viloyat o'sish sur'ati (96,2 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Marg`ilon (105,5 %), Quvasoy (103,8 %) Qo`qon (103,4 %) shaharlarida, Bag`dod (102,6%) Qo`shtepa (102,5%) hamda Dang`ara (102,6%) tumanlarida qayd etildi.




**Hududlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab  
chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati  
(2020- yilning yanvar-iyun oylarida)**

|                          | <b>Mrd. so'm</b> | <b>Jamiga nisbatan ulushi, % da</b> | <b>2019- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, % da</b> |
|--------------------------|------------------|-------------------------------------|--|
| <b>Farg`ona viloyati</b> | <b>3260,8</b>    | <b>100,0</b>                        | <b>96,2</b>  |
| Oltiariq                 | 111,3            | 3,4                                 | 101,8  |
| Qo`shtepa                | 77,7             | 2,4                                 | 102,5  |
| Bag`dod                  | 215,7            | 6,6                                 | 102,6  |
| Buvayda                  | 121,1            | 3,7                                 | 101,8  |
| Beshariq                 | 126,6            | 3,9                                 | 100,1  |
| Quva                     | 178,1            | 5,5                                 | 101,7  |
| Uchko`prik               | 114,9            | 3,5                                 | 100,0  |
| Rishton                  | 120,3            | 3,7                                 | 101,1  |
| So`x                     | 24,1             | 0,7                                 | 87,9   |
| Toshloq                  | 141,2            | 4,3                                 | 100,0  |
| O`zbekiston              | 135,9            | 4,2                                 | 102,1  |
| Farg`ona                 | 97,2             | 3,0                                 | 102,3  |
| Dang`ara                 | 105,7            | 3,2                                 | 102,6  |
| Furqat                   | 41,2             | 1,4                                 | 101,8  |
| Yozyovon                 | 51,6             | 1,6                                 | 94,0   |
| Farg`ona sh              | 565,2            | 17,3                                | 102,4  |
| Qo`qon sh                | 630,3            | 19,3                                | 103,3  |
| Quvasoy sh               | 161,2            | 4,9                                 | 103,8  |
| Marg`ilon sh             | 241,5            | 7,4                                 | 105,5  |

Hududlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyatdagi jami hajmidagi eng yuqori ulushi Qo`qon shahriga to`g`ri kelib, 23,2 %, shuningdek, Farg`ona shahri 20,6 % ni, Marg`olon shahri 6,2 % ni, Quvasoy shahri 4,7% ni, Quva tumani 4,6 % ni hamda Beshariq tumani 4,1 % ni tashkil etdi.




Shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida eng yuqori ko'rsatkich Marg'ilon shahri (104,4 %), Qo`qon shahri (104,3 %), Farg`ona shahri (103,1 %) hamda Quva tumani (101,5 %) qayd etildi.

|  <b>Hududlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati (2020- yilning yanvar-iyun oylarida)</b> |                  |                                     |  |
|---|------------------|-------------------------------------|--|
|   | <b>Mrd. so'm</b> | <b>Jamiga nisbatan ulushi, % da</b> | <b>2019- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, % da</b> |
| <b>Farg`ona viloyati</b>  | <b>1314,3</b>    | <b>100,0</b>                        | <b>101,8</b>   |
| Oltiariq  | 35,1             | 2,8                                 | 100,1  |
| Qo`shtepa   | 23,1             | 1,9                                 | 100,4  |
| Bag`dod   | 89,8             | 6,9                                 | 103,3  |
| Buvayda   | 43,6             | 3,4                                 | 100,8  |
| Beshariq  | 53,1             | 3,9                                 | 100,2  |
| Quva  | 59,6             | 4,4                                 | 101,5  |
| Uchko`prik  | 35,7             | 2,8                                 | 101,2  |
| Rishton   | 44,3             | 3,3                                 | 99,9   |
| So`x  | 10,1             | 0,9                                 | 87,1   |
| Toshloq   | 49,1             | 3,9                                 | 100,1  |
| O`zbekiston   | 43,9             | 3,5                                 | 101,3  |
| Farg`ona  | 32,5             | 2,4                                 | 100,9  |
| Dang`ara  | 33,3             | 2,5                                 | 101,1  |
| Furqat  | 14,7             | 1,2                                 | 100,5  |
| Yozyovon  | 16,1             | 1,3                                 | 94,0   |
| Farg`ona sh   | 265,7            | 21,9                                | 103,1  |
| Qo`qon sh   | 324,3            | 22,2                                | 104,3  |
| Quvasoy sh  | 60,2             | 4,6                                 | 101,6  |
| Marg`ilon sh  | 80,1             | 6,2                                 | 104,4  |

Hududlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyatning jami hajmidagi eng yuqori ulushi Qo`qon shahri to`g`ri kelib, 15,7% ni, shuningdek, Farg`ona shahri 15,4 % ni, Marg`ilon shahri 8,3 % ni, tashkil etdi.

Shuningdek, nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o`sinh sur`atida yuqori ko`rsatkich Oltiariq tumani (103,6 %) Uzbekiston tumani (102,4 %), Uchko`prik tumanida (101,4 %), qayd etildi.

|  <b>Hududlar bo`yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o`sinh sur`ati</b><br><i>(2020- yilning yanvar-iyun oylarida)</i> |                   |                                     |   |
|--|-------------------|-------------------------------------|---|
|  | <b>Mlrd. so`m</b> | <b>Jamiga nisbatan ulushi, % da</b> | <b>2019- yil yanvar-may oylariga nisbatan, % da</b> |
| <b>Farg`ona viloyati</b>   | <b>1946,5</b>     | <b>100,0</b>                        | <b>92,7</b>   |
| Oltiariq   | 76,2              | 3,9                                 | 104,5   |
| Qo`sh tepa   | 54,5              | 2,8                                 | 102,3   |
| Bag`dod  | 125,9             | 6,3                                 | 102,1   |
| Buvayda  | 77,5              | 3,9                                 | 101,2   |
| Beshariq   | 73,5              | 3,8                                 | 101,3   |
| Quva   | 118,5             | 6,1                                 | 100,0   |
| Uchko`prik   | 79,2              | 4,1                                 | 102,3   |
| Rishton  | 76,0              | 3,9                                 | 100,6   |
| So`x   | 14,0              | 0,7                                 | 91,1  |
| Toshloq  | 92,1              | 4,7                                 | 101,3   |
| O`zbekiston  | 92,1              | 4,7                                 | 102,4   |
| Farg`ona   | 64,7              | 3,6                                 | 101,9   |
| Dang`ara   | 72,4              | 3,7                                 | 102,1   |
| Furqat   | 26,5              | 1,2                                 | 102,1   |
| Yozyovon   | 35,5              | 1,5                                 | 100,0   |
| <b>Farg`ona sh</b>   | <b>299,5</b>      | <b>15,4</b>                         | <b>100,5</b>  |

|              |       |      |       |
|--------------|-------|------|-------|
| Qo`qon sh    | 306,0 | 15,8 | 100,2 |
| Quvasoy sh   | 101,0 | 5,7  | 100,0 |
| Marg`ilon sh | 161,4 | 8,2  | 103,6 |



**Farg`ona viloyatida hududlar kesimida  
sanoat ishlab chiqarish hajmlari**

|                         | <b>2020- yil<br/>yanvar-iyun<br/>mlrd. so`m</b> | <b>Fizik hajm<br/>indeksi, % da</b> |
|-------------------------|---|-------------------------------------|
| <b>Farg`ona viloyat</b> | <b>9 458,2</b>                                  | <b>97,1</b>                         |
| Oltiariq                | 149,5   | 90,2                                |
| Qo`shtepa               | 121,8   | 95,1                                |
| Bag`dod                 | 342,0   | 134,0                               |
| Buvayda                 | 165,8   | 90,9                                |
| Beshariq                | 221,0   | 107,5                               |
| Quva                    | 292,4   | 96,9                                |
| Uchko`prik              | 461,0   | 171,4                               |
| Rishton                 | 138,8   | 73,9                                |
| So`x                    | 34,2  | 90,6                                |
| Toshloq                 | 1027,0  | 94,6                                |
| O`zbekiston             | 284,6   | 108,2                               |
| Farg`ona                | 112,7   | 94,3                                |
| Dang`ara                | 237,6   | 67,3                                |
| Furqat                  | 59,5  | 132,2                               |

|                     | <b>2020- yil<br/>yanvar-iyun<br/>mlrd. so'm</b> | <b>Fizik hajm<br/>indeksi, % da</b> |
|---------------------|---|-------------------------------------|
| <b>Yozyovon</b>     | <b>64,9</b>                                     | <b>75,7</b>                         |
| <b>Farg`ona sh</b>  | <b>3308,7</b>                                   | <b>87,8</b>                         |
| <b>Qo`qon sh</b>    | <b>1477,6</b>                                   | <b>98,8</b>                         |
| <b>Quvasoy sh</b>   | <b>542,8</b>                                    | <b>100,4</b>                        |
| <b>Marg`ilon sh</b> | <b>416,3</b>                                    | <b>100,2</b>                        |



**Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari  
va iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish**  
(2020- yil yanvar-iyun oylarida, ming so'm)

|                         | <b>Sanoat<br/>mahsulotlari</b> | <b>Iste'mol<br/>mahsulotlari</b> |
|-------------------------|--------------------------------|----------------------------------|
| <b>Farg`ona viloyat</b> | <b>2510,7</b>                  | <b>865,6</b>                     |
| <b>Oltiariq</b>         | <b>707,5</b>                   | <b>526,4</b>                     |
| <b>Qo`shtepa</b>        | <b>640,8</b>                   | <b>408,4</b>                     |
| <b>Bag`dod</b>          | <b>1588,4</b>                  | <b>1001,9</b>                    |
| <b>Buvayda</b>          | <b>727,9</b>                   | <b>531,6</b>                     |
| <b>Beshariq</b>         | <b>969,8</b>                   | <b>555,4</b>                     |
| <b>Quva</b>             | <b>1133,6</b>                  | <b>690,3</b>                     |
| <b>Uchko`prik</b>       | <b>2018,3</b>                  | <b>503,2</b>                     |
| <b>Rishton</b>          | <b>687,9</b>                   | <b>596,2</b>                     |
| <b>So`x</b>             | <b>439,2</b>                   | <b>309,6</b>                     |
| <b>Toshloq</b>          | <b>5084,1</b>                  | <b>699,0</b>                     |


|              | Sanoat mahsulotlari | Iste'mol mahsulotlari |
|--------------|---------------------|-----------------------|
| O`zbekiston  | 1192,8              | 570,0                 |
| Farg`ona     | 529,1               | 456,2                 |
| Dang`ara     | 1368,7              | 608,7                 |
| Furqat       | 505,6               | 350,1                 |
| Yozyovon     | 587,2               | 467,1                 |
| Farg`ona sh  | 11409,6             | 1948,9                |
| Qo`qon sh    | 5824,4              | 2485,1                |
| Quvasoy sh   | 5799,2              | 1722,1                |
| Marg`ilon sh | 1764,1              | 1023,3                |



**Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda  
kichik biznesning ulushi**  
(2020- yil yanvar-iyun oylarida, % da)

Kichik tadbirkorlik subyektlari sanoat ishlab chiqarishda keskin faollashgani natijasida kichik biznesning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi 37,4% tashkil etmoqda.

2020-yilning yanvar-iyun oylarida hududlar bo`yicha yirik korxonalar va kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi, %






**Farg`ona viloyatida faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalarini**  
(2020- yil 1- iyul holatiga ko`ra)


Bugungi kunda viloyatda 7988 ta sanoat korxonalarini faoliyat ko`rsatayotgan bo`lib, ulardan 1358 tasi Qo`qon shahri, 972 tasi Farg`ona shahri, 953 tasi Marg`ilon shahri, 220 tasi Quvasoy shahri, 580 tasi Uchko`prik tumani, 457 tasi O`zbekiston tumani, 402 tasi Dang`ara tumani, 409 tasi Buvayda tumani, 361 tasi Quva tumani, 329 tasi Toshloq tumani, 298 tasi Oltiariq tumani, 289 tasi Bog`dod tumani, 280 tasi Rishton tumani, 223 tasi Qo`shtepa tumani, 211 tasi Farg`ona tumani, 161 tasi Furqat tumani, 164 tasi Yozyovon tumani, 167 tasi Beshariq tumani, 154 tasi So`x tumaniga to`g`ri keladi.

Joriy yilning yanvar-may oylarida viloyatda 663 ta yangi sanoat korxonalarini tashkil etilgan bo`lib, ulardan 58 tasi Farg`ona shahri, 68 tasi Qo`qon shahri, 68 tasi Marg`ilon shahri, 24 tasi Quvasoy shahri, 39 tasi Quva tumani, 48 tasi Uchko`prik tumani, 37 tasi Buvayda tumani, 30 tasi O`zbekiston tumani, 41 tasi Oltiariq tumani, 45 tasi Rishton tumani, 18 tasi Dang`ara tumani, 25 tasi Farg`ona tumani, 29 tasi Bog`dod tumani, 32 tasi Toshloq tumani, 23 tasi Qo`shtepa tumani, 29 tasi Beshariq tumani, 22 tasi Yozyovon tumani, 16 tasi So`x tuman, 11 tasi Furqat tumaniga to`g`ri keladi

**Yangi tashkil etilgan korxonalar soni, birlikda**



**Faoliyat yuritayotgan korxonalar soni, birlikda**



**Viloyatda sanoat korxonalarining mahalliyashtirish darajasi**  
(2020- yil yanvar-iyun oylari holatiga)

2020 yil yanvar-iyun oylarida viloyat bo'yicha 56 ta korxonalar mahalliyashtirish dasturiga kiritilgan bo'lib ulardan 47 tasi mahalliy korxonalar hisoblanib, bu korxonalar tomonidan 86 loyihalar dasturga kiritilgan. Joriy yilning ikkinchi choragida 56 ta korxonadan 54 tasi mahalliyashtirishni amalga oshirgan va ular tomonidan 79 ta loyiha bo'yicha maxsulot ishlab chiqarilgan. Joriy yilning yanvar-iyun oylarida korxonalar tomonidan taqdim etilgan hisobotlarga ko'ra 407,9 mlrd. so'mlik maxsulot ishlab chiqarilgan bo'lib, 2,0 mln. AQSh dollari miqdorida eksport amalga oshirilgan.



| №                    | Hudud nomi    | Loyiha miqdori |           | Korxonalar soni |           | Ishlab chiqarish hajmi (mlrd.so'm) | Export hajmi (mln.AQSH doll.) | Yangi yaratilgan ish o'ri |
|----------------------|---------------|----------------|-----------|-----------------|-----------|------------------------------------|-------------------------------|---------------------------|
|                      |               | kutilish       | amalda    | kutilish        | amalda    |                                    |                               |                           |
| <b>Viloyat jami:</b> |               | <b>86</b>      | <b>79</b> | <b>56</b>       | <b>54</b> | <b>407,91</b>                      | <b>2,0</b>                    | <b>150</b>                |
| <i>shaharlar:</i>    |               |                |           |                 |           |                                    |                               |                           |
| 1                    | Farg'ona      | 24             | 19        | 11              | 10        | 77,1                               | 1,35                          | 24                        |
| 2                    | Qo'qon        | 5              | 5         | 5               | 5         | 96,4                               | 0,11                          | -                         |
| 3                    | Quvasoy       | 3              | 3         | 3               | 3         | 68,3                               | 0,13                          | 10                        |
| 4                    | Marg'ilon     | 6              | 6         | 6               | 6         | 16,8                               | 0,14                          | 29                        |
| <i>tumanlar:</i>     |               |                |           |                 |           |                                    |                               |                           |
| 5                    | Oltiariq t    | 1              | 1         | 1               | 1         | 0,01                               |                               | -                         |
| 6                    | Qo'shtrpa t   | 4              | 4         | 4               | 4         | 0,8                                |                               | 18                        |
| 7                    | Bag'dod t     | 1              | 1         | 1               | 1         | 1,2                                |                               | -                         |
| 8                    | Buvayda t     | 3              | 3         | 3               | 3         | 4,6                                | 0,01                          | -                         |
| 9                    | Beshariq t    | 1              | 1         | 1               | 1         | 0,1                                |                               | 5                         |
| 10                   | Quva t        | 16             | 16        | 1               | 1         | 0,3                                |                               | -                         |
| 11                   | Uchko'prik t  | 8              | 6         | 7               | 6         | 120,5                              | 0,15                          | 38                        |
| 12                   | Toshloq t     | 1              | 1         | 1               | 1         | 0,8                                |                               | 2                         |
| 13                   | O'zbekiston t | 3              | 3         | 3               | 3         | 0,8                                |                               | 11                        |
| 14                   | Farg'ona t    | 4              | 4         | 3               | 3         | 10,1                               |                               | 4                         |
| 15                   | Dang'ara t    | 6              | 6         | 6               | 6         | 10,1                               | 0,12                          | 9                         |

Farg'ona viloyat statistika  
boshqarmasining  
Sanoat statistikasi bo'limi

**Nashr uchun mas'ul: Sh.Zokirov**

**Aloqa telefoni: 73-249-87-19**